

МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ ТАШКИЛОТИНИ БОШҚАРИШДА ДИРЕКТОР О`РИНБОСАРИНИНГ КАСБИЙ ВА ШАХСИЙ СИФАТЛАРИ

Xorazm viloyati Xiva tuman 5-son

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Direktor o'rinbosari

Matgapurova Muhayyo Otamurotovna

Annatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda direktor o'rinbosarining kasbiy kompetensiyalari va shaxsiy sifatleri, ularning pedagogik jarayon samaradorligiga ta'siri hamda zamonaviy boshqaruvdagi o'rni yoritilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются профессиональные компетенции и личностные качества заместителя директора дошкольной образовательной организации, а также их влияние на эффективность педагогического процесса и роль в современном управлении.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshqaruv, direktor o'rinbosari, kasbiy kompetensiya, shaxsiy sifatlar, pedagogik jarayon, innovatsiya

Ключевые слова: дошкольное образование, управление, заместитель директора, профессиональная компетенция, личностные качества, педагогический процесс

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini (MTT) samarali boshqarish ta'lim sifati va tarbiyaviy jarayonlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda direktor bilan bir qatorda direktor o'rinbosari ham asosiy boshqaruv subyekti hisoblanadi. Direktor o'rinbosari nafaqat tashkiliy ishlarni muvofiqlashtiradi, balki pedagogik jarayon sifatini nazorat qiladi, jamoa faoliyatini yo'naltiradi va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Davlat

va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar majmuasi respublikamizning barcha MTTlariga yetkazilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda birinchi marta hammaga mavzuiy rejalashtirilgan dasturlar tarqatilgan. "Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili - ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari, "Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi".

Ma'lumki, yangi dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlari asosiy o'rin tutadi. Pedagog, ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi.




Pedagogik mahoratidan kelib chiqib har bir rahbar o'zining madaniyati, bolaga mehri-muhabbati orqali bolaga namuna bo'layotganligini, uni hayotga tayyorlayotganligini unutmasligi lozim. Bolaning sog'ligi va tarbiyasi bilan shug'ullanar ekan, tarbiyachi va ota-ona ularning baxtli bolaligini yarata olishlari lozim.

Bolaning rivojlanish davri atrof dunyoni estetik jihatdan o'rganish uchun tayyorlov bosqichi deb qarash muhimdir. Chunki, u butun sensor apparatning farqlovchi sezgirligini rivojlantirishdan va ob'ektlar (buyum va hodisalar)ning eng yorqin xususiyat hamda sifatlarini idrok etishga hissiy javobdan boshlanadi. Bola maktabgacha ta'lim davrida eng yorqin sifatlarga: ritmik harakatlar, musiqa sadolari, yorqin ranglar, ona va pedagogning chehrasi, uning jilmayishi, erkalovchi so'zlari bilan dunyoni anglaydi. Ya'niki, ularga dunyoni ona va pedagog tanitadi. Ayniqsa, hayotning birinchi yili davomida bolalarda sensor-hissiy ta'sirchanlik faol takomillashadi. Hayotning ikkinchi yilida bolada asta-sekin idrokning takomillashuvi sodir bo'la boshlaydi. Endilikda bola faqat voqelikning xususiyatlarini emas, balki ayrim san'at asarlaridagi estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydi. Unda san'at asarlaridagi kontrast ifoda vositalari: quvnoq va g'amgin kuy, tez va ohista sur'at, musiqaning baland va past ovozi va shu kabilardan tegishli ta'sirlanish paydo bo'la boshlaydi. O'zi uchun yoqimli narsalarga kichkintoylarda hissiy javob yo yig'lashdan keyingi tinchishda yoki jo'shqin harakat ta'siriga javob sifatidagi jilmayishida, shodon kulgisida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarning har-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish va maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish, rivojlanayotgan jamiyat talablaridan kelib chiqib ishni tashkil etish muhimdir. Bu borada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Samarali boshqaruv uchun quyidagi shaxsiy fazilatlar muhim hisoblanadi:



XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlarni puxta biladigan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti. 2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilishi ham sohada o'ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo'sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha —Yo'l xaritasi tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida —Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va navbatga qo'yish bo'yicha elektron dasturni joriy

etish bo'yicha topshiriq berildi. Shuningdek, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlanganlik va internet tarmog'iga ulanganlik holati tanqidiy o'rganilib, ularni bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash va internet tarmog'iga ulash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning —Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish zarurki, maktabgacha sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, ushbu sohaga xizmat qiladigan barcha tashkilotlar bo'layotgan o'zgarishlarga ongli ravishda fidoiyligi, mehnati bilan o'z hissasini qo'shmog'i, maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, bo'lajak pedagog-tarbiyachilar bilimli, malakali kadrlar bo'lib yetishishi zarurdir.

Bugun biz qurmoqchi bo'layotgan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ana shu talabga javob bera oladigan, bolalarimiz qonida yugurayotgan iste'dod va iqtidorni yuzaga chiqaradigan, erkin fikrlaydigan bo'lajak yurt egalarining o'zligini tanitadigan sevimli maskanga aylanmog'i shart. Zero, yurtboshimiz behudaga shuncha sharoit, imkoniyat va porloq kelajak eshigini ochib qo'yganlari yo'q. Faqat bu soha vakillaridan fidoiylilik, mehnat, sabr va mehr-muhabbat talab qilinadi, xolos.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.— T.: "O'zbekiston", 2023.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi 44/25-qarori bilan qabul qilingan. Nyu-York, 1989 yil 20 noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning olidini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3827-Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
6. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.